

## PEDAGOGIK INTEGRATSIYANING ASOSIY KOMPONENTLARI VA AMALGA OSHIRILADIGAN FUNKSIYALAR

*Uralova Muxabbat Sanjar qizi*

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti*

*“Pedagogika” kafedrasida o‘qituvchisi*

*Tel: 91 906 14 77*

*E-mail: [uralovamuhabbat50@gmail.com](mailto:uralovamuhabbat50@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Maqolada integratsiyaning asosiy komponentlari va amalga oshiriladigan funksiyalar haqida so‘z yuritilgan. Pedagogik jarayonda integratsiyaning o‘rni va ahamiyati haqida aytib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** kompetentlik, komponent, pedagogika, ijodiy faoliyat, integrativ yondashuv, tamoyil, ijtimoiylashuv, integratsiya.

Pedagogik jarayonning yaxlitligi va birligi qonuniyatlari hamda o‘qitishning tizimlilik, uzviylik, izchillik va uzluksizlik tamoyillaridan kelib chiqib, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini ijodiy-metodik faoliyatga tayyorlashda integrativ yondashuvni joriy etish amaliyotiga qo‘yiladigan asosiy talablarni aniqlash orqali bu jarayonning samarali tashkil etish uchun zarur bo‘lgan pedagogik shart-sharoitlarni yuzaga chiqarish masalasini ko‘rib chiqamiz[1].

O‘qitish mazmun-mundarijasining integratsiyasini amalga oshirish integrativ yondashuvning eng samarali, har qanday vaziyatlarda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan tarkibiy qismi hisoblanadi. Fanlarning o‘zaro integratsiyasi:

- fanlarning alohida qismlarini (masalan, mavzular, ahamiyatli faktlar, qonunlar);
- yaxlit bir fanni (integratsiya qilinadigan fan nuqtai nazaridan olam manzaralarini ifodalovchi nazariyalarni);

- fanni hosil qiluvchi motivatsiyaviy, mundarijaviy va faoliyatli komponentlarni;
- ratsional va emotsional mazmunini uyg‘unlashtirish orqali amalga oshiriladi [1].

Integratsiyani har qanday darajada, shu jumladan, fanlararo darajada amalga oshirishda ta’limning tizimlilik, uzviylik, uzluksizlik va izchillik tamoyillari “biriktiruvchi halqa” vazifasini o‘taydi. Modomiki, shunday ekan, mazkur tamoyillarning mohiyatiga to‘xtalib o‘tish va ularning bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ijodiy-metodik faoliyatga tayyorlashda integrativ yondashuvni joriy etish uchun zarur bo‘ladigan pedagogik shart-sharoitlarda tutgan o‘rnini ajratib ko‘rsatish tadqiqot ishimiz maqsadlariga muvofiqdir. Mazkur ishning birinchi bobida aytib o‘tganimizdek, integrativ yondashuvga qo‘yiladigan talablar bu jarayonning mantiqiylik, izchillik, uzviylik va vorisiylik asosida tashkil etilishini taqozo etadi. Ko‘rib turganimizdek, integrativ yondashuvni qo‘llashga qo‘yiladigan talablar bilan integratsiyani turli

darajada joriy etishning tamoyillari o‘rtasida yaqqol ko‘zga tashlanadigan umumiyliklar mavjud.

**Integratsiyani turli darajada joriy etishning tizimlilik tamoyilida** boshqa o‘quv fanidan integratsiya etiladigan mavzu (tushuncha, fakt, ma’lumot, bo‘lim va hokazolar) muayyan fandagi o‘xshash tushunchalar bilan uyg‘unlashib, o‘quv maqsadining samarali hal etishini ta’minlaydigan tizim hosil qilishi va bu tizimning xossalari uni hosil qilgan komponentlar (ya’ni integratsiya etilgan obyekt va o‘rganilayotgan fandagi o‘xshash obyekt) xossalari yig‘indisidan mazmunan ahamiyatliroq bo‘lishidir [2-9].

Aytish kerakki, tizimlilik tamoyinining mazmun-mohiyatini tadqiq etishda ayrim korreksiyalar kiritildi. Xususan, hozirgi davrda integratsiyani joriy etishning tizimlilik tamoyili deyilganda nafaqat integrativ tizim (tartibli integrativ majmua) hosil qilish, balki integratsiyalashgan tushunchalar va mavzular orqali olam manzarasining ilmiy qiyofasini majmuaviy tarzda anglash ham tushuniladi [10-16].

**Integratsiyani joriy etishning uzviylik tamoyili** o‘rganiladigan har bir tushuncha, ma’lumot, bilim, malaka va o‘zlashtiriladigan ko‘nikma hamda mahorat ilgarigi turdoshlarining davomi va yangi turdoshlari uchun asos vazifasini o‘tagani holda, o‘quv jarayonining mavzulararo aloqadorligini ta’minlanishini taqozo etadi. Mazkur tamoyilda integrativ obyektlarni bog‘lovchi uzv sifatida, ko‘pincha, fanga oid muayyan qonun, tushuncha, ta’rif olinadi [17]. Ushbu tamoyilni joriy etish orqali alohida tushuncha, mavzu, bo‘lim, pirovardida, o‘quv kursining zarur darajada o‘zlashtirilishiga erishiladi

**Integratsiyani joriy etishning izchillik tamoyili** fanlararo (mavzulararo, bo‘limlararo) integratsiyani amalga oshirishda integrativ elementlar o‘rtasida mantikiy va mundarijaviy ketma-ketlikka amal qilinishini taqozo etadi. Bu bilan avval o‘rganilgan tushunchalarning (mavzularning) mukammallashtirib borilishi, ular negizida yangi tushunchalarning (mavzularning) to‘liq va mufassal o‘zlashtirilishiga erishish nazarda tutiladi.

**Integratsiyani joriy etishning uzluksizlik tamoyiliga** amal qilish orqali integrativ obyektlarning (yoki elementlarning) butun ta’lim jarayoni davomida rivojlantirib borishni ta’minlash ko‘zda tutiladi. Shu barobarida, integrativ tizimning mazmunan takomillashib, mufassallashib borishi, ayni vaqtda, hajman soddalashib, ixchamlashib borishiga erishish mumkin.

Mazkur tamoyillar tadqiqot ishimizning o‘tgan bobida ko‘rib o‘tganimiz integrativ yondashuvning jarayon sifatidagi asosiy tamoyillarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Integrativ yondashuvnin subyektlilik, madaniyatga muvofiqlik, kreativlik va ijodiylik, shaxsning fuqarolik, ijtimoiy va individual qadriyatlariga yo‘naltirilganligi, sinergiya, mustaqil ta’lim olishni va o‘zaro munosabatlar madaniyati ta’minlash, o‘quv-tarbiya jarayoni subyektlariga ta’sir ko‘rsatish vositalarini

tanlashdagi variantlilik kabi tamoyillarga tayangan holda integrativ yondashuvga jarayon sifatida qo‘yiladigan bir qator talablar ishlab chiqilgan edi[18-23].

Shunday qilib, integrativ yondashuv asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ijodiy-metodik faoliyatga tayyorlashni samarali amalga oshirish uchun quyidagi pedagogik shartlar bajarilishi lozim, deb hisoblaymiz:

1. Integrativ yondashuvning asosini tashkil etuvchi integratsiya obyektini va integratsiyaning joriy etilish darajasini belgilashda ijodiy-metodik faoliyatning aynan qaysi komponenti va qanday xossalarni rivojlantirish bilan maqsadning aniq belgilab olinishi.

2. Ijodiy-metodik faoliyatning o‘zi mohiyatan integrativ (qorishma) faoliyat ekanligidan kelib chiqib, har bir fanning (bo‘lim, mavzu, tushuncha yoki konseptning) integrativ obyekt sifatidagi ijodiy va metodik jihatlarini yuzaga chiqarishni nazarda tutuvchi asosiy vazifalarning aniqlashtirib olinishi.

3. Ta‘lim oluvchilarning (bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining) ijodiy-metodik potensialini yuzaga chiqarishga hamda davomli tarbiyalashga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi asosiy omillar aniqlab olinishi va ularni bartaraf etish bo‘yicha taklif etiladigan metodikalarning joriy etilishi.

4. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ijodiy-metodik faoliyatga tayyorlash texnologiyasining joriy etilish natijadorligini baholab borishga qaratilgan mexanizmlarning muntazam faollashtirilganligi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abduraimovna, D. S. (2023). TYPES OF REFLEXIVE LEARNING TECHNOLOGIES IN THE PEDAGOGICAL EDUCATION SYSTEM. Open Access Repository, 4(03), 31-40.

2. Уралова, М. (2023). BO ‘LAJAK BOSHLANG ‘ICH SINFI O ‘QITUVCHISINING IJODIY-METODIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(11).

3. Уралова, М. (2023). BO ‘LAJAK BOSHLANG ‘ICH SINFI O ‘QITUVCHISINING IJODIY-METODIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(11).

4. Уралова Мухабата Санджаровна. (2023). Подготовка будущих учителей начальных классов к творчески-методической деятельности на основе интегративного подхода. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 3(3), 390–393.

5. Baxtiyorovich, T.H. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QITUVCHILARIDA AXBOROTLARNI TIZIMLI TARKIBLASHTIRISH KO‘NIMALARINI

SHAKLLANTIRISHDA DIDAKTIK YONDASHUVLARNING AHAMIYATI. Journal of Universal Science Research, 1(10), 153-159.

6. Tojiyev, H. (2023). FORMING THE ABILITY TO STRUCTURE INFORMATION TECHNOLOGY. Conferencea, 105-113.

7. Baxtiyorovich, H. T. (2022). OO 'QUVCHILARDA AXBOROTLARNI TIZIMLI TARKIBLASHTIRISH TEXNOLOGIYASINING ZAMONAVIY USULLARI VA TAMOYILLARI. Conferencea, 139-147.

8. Baxtiyorovich, T. H. (2021). Ways to Organize Extracurricular Activities in Mathematics and Teaching Methodology. International Journal of Human Computing Studies, 3(10), 7-9.

9. Тожиев, Х. Б., & Бадалов, К. Р. (2023). ОСОБЕННОСТИ НЕКОТОРЫХ МЕТОДОВ, КОТОРЫЕ ПРИМЕНЯЕТ НАЧАЛЬНЫЙ КЛАСС В ИЗУЧЕНИИ РОДНОГО ЯЗЫКА. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 33(2), 3-9.

10. Rahmat ogli, B. K. (2023). Bo 'lajak boshlang 'ich sinf o 'qituvchisining didaktik-metodik kompetentligi xususiyatlari. Journal of Universal Science Research, 1(10), 160-165.

11. Kamoliddin, B., & Kholiqovna, K. N. (2023). A CONCEPTUAL APPROACH TO THE DEVELOPMENT OF THE DIDACTIC-METHODICAL COMPETENCE OF THE FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHER. World Bulletin of Social Sciences, 21, 160-164.

12. Badalov, K. (2023). DEVELOPING THE CREATIVITY OF A PRIMARY CLASS TEACHER. Open Access Repository, 4(02), 141-148.

13. Kamoliddin, B. (2023, January). BOSHLANGICH SINFLARDA GEOMETRIK MATERIALLARNI ORGANISH MANTIQIY KONIKMALARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. In E Conference Zone (pp. 35-39).

14. Тожиев, Х. Б., & Бадалов, К. Р. (2023). ОСОБЕННОСТИ НЕКОТОРЫХ МЕТОДОВ, КОТОРЫЕ ПРИМЕНЯЕТ НАЧАЛЬНЫЙ КЛАСС В ИЗУЧЕНИИ РОДНОГО ЯЗЫКА. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 33(2), 3-9.

15. Baxtiyorovich, T. H., Javohir G'aybullo o'g, Z., & Rahmat o'g'li, B. K. (2023). BOSHLANG 'ICH SINFLARDA 'QUVCHILARINING INFORMATIKA DARSLARIDA AXBOROTNI TUZILMALASHTIRISH MAHORATLARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI. Journal of new century innovations, 40(2), 66-70.

16. Rahmat o'g'li, B. K., Baxtiyorovich, T. H., & Javohir G'aybullo o'g, Z. (2023). TALABALARNING RATSIONAL FAOLIYATLARINI TASHKIL ETISH YO 'LLARI. Journal of new century innovations, 40(2), 71-75.

17. Rahmat o'g'li, B. K., Baxtiyorovich, T. H., & Javohir G'aybullo o'g, Z. (2023). BOSHLANG 'ICH SINFLARDA 'QITUVCHISINING DIDAKTIK-METODIK KOMPETENTLIGI SHAKLLANTIRISH. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 33(1), 178-182.

18. Bobonazarovich, A. Z. (2021). THE ROLE AND INFLUENCE OF PSYCHOLOGICAL KNOWLEDGE IN THE DEVELOPMENT OF RESPECT FOR

NATIONAL AND CULTURAL VALUES IN CHILDREN IN THE EDUCATIONAL ENVIRONMENT. *European science*, (4 (60)), 53-56.

19. Алмарданов, Ж. Б. (2022). МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИ МИЛЛИЙ ВА МАДАНИЙ ҚАДРИЯТЛАРГА ҲУРМАТ РУҲИДА ТАРБИЯЛАШ ИМКОНИАТЛАРИ. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(3), 479-481.

20. Алмарданов, Ж. Б. (2020). Механизмы воспитания уважения к национальным и культурным ценностям у детей в образовательной среде. *Вестник науки и образования*, (7-2 (85)), 92-94.

21. Алмарданов, Ж. Б. (2023). БОЛАЛАРНИ МИЛЛИЙ ВА МАДАНИЙ ҚАДРИЯТЛАРГА ҲУРМАТ РУҲИДА ТАРБИЯЛАШ. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(13), 287-289.

22. Алмарданов, Ж. Б. (2023). БОЛАЛАРНИ МИЛЛИЙ ВА МАДАНИЙ ҚАДРИЯТЛАРГА ҲУРМАТ РУҲИДА ТАРБИЯЛАШ. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(13), 287–289.

23. Bobonazarovich, A. J. R. (2023). Zamonaviy maktabgacha ta’limda bolalarda milliy va madaniy qadriyatlarni shakllantirishning nazariy asoslari. *Journal of Universal Science Research*, 1(10), 23-30.